

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

**KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA “SHAXS” KONSEPTINING
LINGVO KOGNITIV TALQINI⁷****Elmuratova Umida Mamadiyorovna***Samarqand davlat chet tillar instituti**mustaqil tatqiqodchisi**Samarqand, O‘zbekiston**E-mail: elmuratovau1981@gmail.com**ORCID ID: [0000-0003-1038-5832](https://orcid.org/0000-0003-1038-5832)***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada “shaxs (인간)” konseptining lingvokognitiv talqini keng qamrovda lingvopoetik tahlil qilingan. Shaxs konsepti inson tafakkuri, milliy dunyo qarashi va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kognitiv birlik sifatida izohlanib, leksik – semantik, frazeologik, stilistik vositalarni anglashda lingvopoetik tahlil jarayonida muammolar aniqlangan. Tadqiqotda o‘zbek va koreys badiiy asarlari asosida shaxs konseptining milliy–madaniy xususiyatlari, uning lingvopoetik ifodalanish vositalari, shuningdek, axloqiy va ruhiy qatlamlari ochib berish orqali tahlil qilish zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Bunday yondashuv kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan shaxs konseptini til, tafakkur va madaniyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Maqolada konseptual tahlil, qiyosiy–lingvopoetik hamda kognitiv–semantik metodlar asosida tadqiqot olib borilgan. Natijada shaxs konsepti insonning individual va ijtimoiy mohiyatini, axloqiy qadriyatlarini, milliy o‘zligini ifodalovchi markaziy semantik birlik sifatida talqin qilinadi. O‘zbek va koreys badiiy matnlarida ushbu konsept milliy mentalitet, dunyoqarash va qadriyat tizimiga xos bo‘lgan metaforik va emotsional vositalar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga talabalar koreys badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida asosiy g‘oyalarni ajratib olishi, turli ma’no qismlarini anglashi, hamda ularni o‘zbek badiiy asrlari bilan qiyosiy o‘rganishda semantik va estetik qatlam larini chuqurroq anglash imkonini beradi.

KALIT SO‘ZLAR

Kognitologiya, konsept, konseptosfera, madaniyat, tafakkur, komporavistika, shaxs, lingvokognitiv tahlil, madaniy sxema.

Received: October 14, 2025**Accepted:** October 28, 2025**Available online:** February 25, 2026

⁷ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Elmuratova U. Koreys va o‘zbek tillarida “shaxs” konseptining lingvo kognitiv talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 89-106

LINGUO–COGNITIVE INTERPRETATION OF THE "PERSON" CONCEPT IN KOREAN AND UZBEK LANGUAGES

Elmuratova Umida Mamadiyorovna

*Independent Researcher of
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan*

E-mail: elmuratovau1981@gmail.com

ORCID ID: [0000-0003-1038-5832](https://orcid.org/0000-0003-1038-5832)

ABSTRACT

In this article, the linguo–cognitive interpretation of the concept of “person (인간)” is analyzed on a broad scale through a linguopoetic approach. The concept of person is explained as a cognitive unit directly connected with human thinking, national worldview, and cultural values, and several issues are identified in understanding lexical – semantic, phraseological, and stylistic means during linguo poetic analysis. The study scientifically substantiates the necessity of analyzing the national–cultural characteristics of the concept of person, its linguopoetic means of expression, as well as its ethical and spiritual layers based on Uzbek and Korean literary works. Such an approach demonstrates, from the perspective of cognitive linguistics, the intrinsic connection between language, thought, and culture in the concept of person. The article conducts research using conceptual analysis, comparative–linguopoetic, and cognitive–semantic methods. As a result, the concept of person is interpreted as a central semantic unit that represents an individual’s personal and social essence, moral values, and national identity. In Uzbek and Korean literary texts, this concept is expressed through metaphorical and emotional means characteristic of the national mentality, worldview, and system of values. At the same time, the analysis of Korean literary works enables students to extract the main ideas, understand different semantic layers, and, when comparatively studying them with Uzbek literary works, more deeply comprehend their semantic and aesthetic dimensions.

KEYWORDS

Cognitology,
concept, conceptsphere,
culture, thinking,
compara tivistics,
personality, linguo–
cognitive analysis,
cultural schema.

ЛИНГВОКОГНИТИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ЛИЧНОСТЬ» В КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Элмуратова Умида Мамадиёровна

независимый исследователь,

Самаркандский государственный

институт иностранных языков,

Самарканд, Узбекистан

E-mail: elmuratovau1981@gmail.com

ORCID ID: [0000-0003-1038-5832](https://orcid.org/0000-0003-1038-5832)

АННОТАЦИЯ

В данной статье в рамках лингвопоэтического подхода широко анализируется лингвокогнитивная интерпретация концепта «личность (인간)». В работе концепт «личность» определен как когнитивная единица, напрямую связанная с человеческим мышлением, национальным мировоззрением и культурными ценностями, выявлены проблемы в понимании лексико-семантических, фразеологических и стилистических средств при его лингвопоэтическом анализе. В исследовании научно обоснована необходимость анализа национально-культурных особенностей концепта «личность», лингвопоэтических средств его выражения, а также его нравственных и духовных смыслов на материале узбекских и корейских художественных произведений. Такой подход с точки зрения когнитивной лингвистики демонстрирует неразрывную связь между языком, мышлением и культурой в структуре концепта «личность». В статье используются методы концептуального, сопоставительного лингвопоэтического и когнитивно-семантического анализа. В результате концепт «личность» трактуется как центральная семантическая единица, выражающая индивидуальную и социальную сущность человека, его моральные ценности и национальную идентичность. В узбекских и корейских художественных текстах этот концепт передаётся через метафорические и эмоциональные средства, характерные для национального менталитета, мировоззрения и системы ценностей. Кроме того, анализ корейских художественных произведений в сравнении с узбекскими позволяет студентам выделять в них основные идеи, понимать различные смысловые пласты и глубже анализировать их семантический и эстетический уровень.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Когнитология, концепт, концептосфера, культура, мышление, компаративистика, личность, лингвокогнитивный анализ, культурная схема.

KIRISH

So‘nggi yillarda olimlar insonning lisoniy tafakkuri va muloqot faoliyatini izchil o‘rganmoqdalar. Shu asosda zamonaviy tilshunoslikda sotsiolingvistika, pragmatika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi yo‘nalishlar shakllandi. Ularning barchasi til va tafakkur, til va ong o‘rtasidagi murakkab aloqalarni o‘rganishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishlarni birlashtirib turuvchi asosiy soha – kognitiv tilshunoslikdir.

Kognitiv tilshunoslikda til va tafakkur, so‘z ma‘nosi va bilim tizimlari o‘zaro aloqada o‘rganiladi. Bu yondashuv kategoriya va konseptlarni tahlil qilish orqali bilimning turli strukturalarini aniqlashga yordam beradi (Бабушкин А.П., 1996, 43). Kognitologiya – bilim va tafakkur, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini idrok etish, anglash natijalarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u inson ongidagi bilim tizimlarini, ularning shakllanish jarayonlarini, axborotni qayta ishlash va saqlash mexanizmlarini tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslikning o‘rganish obyekti – til. U tilni “inson ongida fikrlarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, bilimlarni saqlovchi hamda tashkil qiluvchi vosita” sifatida tadqiq etadi. Kravchenko ta’kidlaganidek, til “bilim olish ning ajralmas qismi bo‘lib, madaniy, ruhiy va kommunikativ omillarning o‘zaro aloqasini aks ettiradi” (Кравченко А. В., 2004, 67).

N.N. Boldyrevning fikricha, kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi – “tilni tadqiq etish orqali bilimlarning ichki tuzilmalari va ular orasidagi bog‘liqlikni izohlash”dir. Uning asosiy vazifasi esa insonni o‘rab turgan muhitni, tarix va madaniyatni, urf–odatlarini anglashda tilning vositachilik rolini ochib berishdan iboratdir (Boldirev, N. N., 2004, 23).

E.S. Kubryakovaning fikricha, kognitiv fan – bu “fikrlash, bilish, axborotni saqlash va qayta ishlash” bilan shug‘ullanuvchi ilmiy yo‘nalishlar uchun “soyabon” atamadir. U kognitiv psixologiya, kognitiv tilshunoslik, kognitiv falsafa, sun‘iy intellekt nazariyasi, neyrofiziologiya kabi yo‘nalishlarni birlashtiradi (Boldirev N.N., 2009, 44). Hozirda hatto kognitiv antropologiya, kognitiv sotsiologiya, kognitiv adabiyotshunoslik kabi sohalar ham shakllangan.

N.N. Boldyrevning ta'kidlashisha, kognitsiya – bu ma'lumotlarni idrok etish, qayta ishlash, eslab qolish va foydalanishning ongli yoki ongsiz jarayonidir. U quyidagi psixologik jarayonlarni o'z ichiga oladi: 1) dunyoni qabul qilish; 2) kuza tish; 3) kategoriyalarga ajratish; 4) tafakkur; 5) nutq; 6) tasavvur va boshqalar (Кубрякова Е. С., 2004, 7).

ASOSIY QISM

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik tamoyil til hodisalarini inson lisoniy ongi bilan bog'liq holda keng ko'lamda tadqiq etishni taqozo etmoqda. Kognitiv tilshunoslik insonning ma'naviyati, tafakkuri, ongi, madaniyati, muloqoti va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq holda, inson omiliga asoslangan yangi ilmiy yondashuv sifatida tilshunoslik fani istiqbolini belgilab bermoqda (Evans, Vyvyan, Green, Melanie., 2006, 9).

Til va tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, inson idroki, va dunyoqarashi til birliklarida o'z ifodasini topadi. Shu nuqtayi nazardan, shaxs konsepti har bir xalqning madaniy–milliy tafakkurini ochib beruvchi muhim lingvokognitiv birlik hisoblanadi. (Langacker, Ronald W., 1987, 78).

Lingvokognitiv yondashuvda konsept (개념, *gaenyeom*) – inson ongida aks etuvchi bilimlar, hissiy tajriba va madaniy qadriyatlar majmuasi sifatida talqin etiladi. (Xudoyberganova D., 2019, 86). U nafaqat til birliklarida, balki xalqning ijtimoiy hayoti, an'anaviy qadriyatlari va mentalitetida ham mujassamdir.

O'zbek tili uchun “shaxs” konsepti ko'pincha “vijdon”, “nomus”, “or” kabi ma'naviy tushunchalar bilan bog'liq bo'lsa, koreys tilida bu konsept “chaemyon” (체면) – “yuz, obro'” tushunchasi orqali ifodalanadi. Shu tarzda, har ikki xalqda shaxs konsepti ijtimoiy–axloqiy tizimning markaziy elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxs konseptining tuzilmasi uch asosiy qatlamni o'z ichiga oladi:

1. **Kognitiv qatlam** (인지적 층, *injijeok cheung*) – bilim va tajriba asosida

shakllangan konseptual asos;

2. **Emotsional qatlam** (*감정적 층, gamjeongjeok cheung*) – shaxsga nisbatan his–tuygʻularning ifodasi;

3. **Madaniy qatlam** (*문화적 층, munhwajeok cheung*) – xalqning urf–odatlarini va qadriyatlarini orqali shakllangan semantik mazmun. (Gʻulomov. A., 2003, 77)

Oʻzbek konseptosferasida “shaxs” koʻproq ijtimoiy burch, oilaviy masʼuliyat, milliy gʻurur bilan bogʻlanadi. Koreys konseptosferasida esa “shaxs” tushunchasi “jamiyat uchun yashash” (*gongdongche jungsi, 공동체 중심*) tamoyiliga asoslanadi. Bu hol koreys xalqining konfutsiycha qadriyatlarini – *효 (hyo)* “ota–onaga hurmat” va *의리 (uiry)* “sadoqat” kategoriyalarida yaqqol koʻrinadi (Kim, J. (김종록) 2012, 55–73). Oʻzbek tilida shaxs konsepti “odam”, “inson”, “yigit”, “ayol”, “ona”, “oʻgʻil” kabi nominativ birliklar orqali namoyon boʻlsa, koreys tilida “*사람 (saram)*”, “*인간 (ingan)*”, “*남자 (namja)*”, “*여자 (yeoja)*” birliklari orqali ifodalanadi.

Misol uchun, Togʻay Murod asarlarida shaxs konsepti “yerga, xalqqa sadoqat”, “vijdon azobi”, “or–nomus” orqali talqin etiladi. Pak Vanso (*박완서*) asarlarida esa shaxs “oilaviy qadriyatlar”, “ayollik masʼuliyati” va “jamiyatdagi oʻrni” orqali ochiladi.

Koreys va oʻzbek tillaridagi shaxs konsepti umumiy jihatdan insonning ijtimoiy–madaniy mohiyatini ifodalasa–da, har bir xalqning milliy tafakkuri, tarixiy tajribasi va qadriyatlar tizimi bu konseptni oʻziga xos yoʻnalishda shakllantirgan. Lingvokognitiv yondashuv bunday konseptual farqlarni nafaqat semantik, balki kognitiv asosda ham aniqlash imkonini beradi.

Tilshunoslikda insonni markazga qoʻyuvchi konseptual yondashuv XX

asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol shakllandi. Bu yo‘nalishda inson tafakkuri (*사고*, *sago*), idroki (*인식*, *insik*) va dunyoqarashi (*세계관*, *segye-gwan*) tildagi ifodasi orqali o‘rganiladi. Shaxs konsepti (*개인 개념*, *gaein gaenyeom*) esa til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiruvchi asosiy kognitiv birlik sifatida qaraladi.

O‘zbek tilshunosligida shaxs konsepti masalasi A. G‘ulomov, N. Mahmudov, D. Jo‘raeva, Z. Qurbonova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, koreys tilshunosligida bu masalaga Kim Jongrok (*김종록*), Lee Hyeon-bok (*이현복*), Choi Won-young (*최원영*) singari olimlar e‘tibor qaratgan.

O‘zbek olimasi D. Jo‘raeva “Til va tafakkur uyg‘unligi orqali shaxs konsepti xalq ma‘naviyatining o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi” deb ta‘kidlaydi. (Jo‘raeva D., 2016, 55). Bu fikr shundan dalolat beradiki, shaxs konsepti o‘zbek xalqining ijtimoiy–madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan.

Koreys olimi Kim Jongrok (*김종록*) esa shaxs konseptini “*사회 속에서 자신의 역할을 인식하는 구조적 개념*” (“jamiyat ichida insonning o‘z rolini anglashga asoslangan strukturaviy konsept”) sifatida izohlaydi. (Kim. J., (*김종록*) 2010, 62) Demak, koreys dunyoqarashi da shaxsning o‘zi emas, balki uning jamiyatdagi o‘rni va mas‘uliyati ustuvor. Bu ikki qarashni qiyoslasak, o‘zbek modeli – individning axloqiy–ruhiy o‘zlik anglashiga, koreys modeli esa – ijtimoiy garmoniya (*조화*, *johwa*) va kollektiv mas‘uliyatga asoslanganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilida “shaxs” konsepti “nomus”, “vijdon”, “or”, “sadoqat” kabi ma‘naviy birliklar bilan uzviy bog‘liq. Z. Qurbonova fikricha, “shaxs konsepti o‘zbek xalqining ‘or–nomus’ axloqiy qadriyatlari bilan semantik jihatdan uyg‘unlashgan” Koreys madaniyatida esa bu konsept “*체면* (*chaemyon*)” – obro‘,

yuz, hamda “효 (hyo)” – ota-onaga sadoqat va hurmat tushunchalari bilan ifodalanadi. Lee Hyeon-bok (이현복) shunday yozadi: “한국인의 정체성은 효(孝)와 체면(體面)의 균형 위에 형성된다” (“Koreys shaxsiyati *hyo* va *chaemyon* ning muvozanati asosida shakllanadi”), (Lee, H. (이현복) 2017, 134). Demak, koreys tilida shaxs konsepti ijtimoiy uygʻunlik (사회적 조화) va oila markazli qadriyatlar bilan belgilanadi, oʻzbek tilida esa u axloqiy mustaqillik va vijdoniy mezonlar orqali talqin qilinadi.

A. Gʻulomov kognitiv modelni “inson tafakkurining lingvistik inʼikosidir” deya taʼriflab, konseptni til, ong va madaniyatni bogʻlovchi koʻprik deb biladi (Gʻulomov.A., 2001, 15–21). Koreys tadqiqotchisi Choi Won-young (최원영) esa shaxs konseptining model lashtirilishini 문화 스키마 (munhwa schema) – “madaniy sxema” tushunchasi orqali tushuntiradi (Choi, W. (최원영) 2018, 101–120). Uning fikricha, har bir xalq tilida insonni anglash modeli shu xalqning tarixiy tajribasidan kelib chiqadi.

Masalan, oʻzbek matnlarida “odam” soʻzi koʻpincha “yaxshi odam”, “orli inson” singari etik qiymat bilan birga keladi, koreys tilida esa “사람답다 (saramdapda)” – “insondek yashamoq” degan ibora insonning axloqiy mukammalligi mezonidir.

Koreys va oʻzbek tillarida shaxs konsepti xalq tafakkuri va qadriyatlarining koʻzgusi sifatida qaraladi. Oʻzbek konseptosferasida shaxs – vijdon, or-nomus, mustaqillik bilan belgilanadi; koreys konseptosferasida esa shaxs – jamiyat va oila oldidagi masʼuliyat, chaemyon va hyo qadriyatlari orqali talqin qilinadi.

Lingvokognitiv yondashuv ushbu konseptlarning nafaqat semantik, balki madaniy-psixologik asoslarini ham tahlil qilish imkonini beradi.

Kognitiv tilshunoslikning bugungi kun taraqqiyoti bosqichida konseptual tahlilning ko‘plab muammolari hal qilinmoqda, inson ongini tadqiq qilish borasida izlanishlar olib borilmoqda. Kognitiv lingvistikada konsept til birliklarining ma’nosi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va shunga binoan tafakkur birligi sifatida qaralayotgan konseptni qoliplashtirishda til birliklariga tayaniladi. Inson fenomeni har qanday fanda o‘ziga xos yo‘nalishda o‘rganiladi va uzviy yondashuvlar asosida tadqiq qilinadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan lingvistik asoslarga tayangan holda shaxs konseptosferasining yadro ya’ni, markaz konseptlarini aniqlash kerak bo‘ladi. O‘z o‘zidan ma’lumki shaxs konseptosferasining yadro konsepti bu insondir. O‘zbek tili nuqtayi nazaridan olib qaralganda *odam, inson, shaxs, kishi, kimsa, odamzod, fuqaro* so‘zlari markaziy konseptni tashkil qiladi. Koreys tili misolida ko‘radigan bo‘lsak, *사람, 인간, 인물, 개인, 인사, 인* nominativ birliklari yadroviy konseptni hosil qilyapti. Bu markaziy konseptlar o‘z atrofiga turli xil qurshovda bo‘lgan konseptlarni qamrab oladi. Konseptosferalarning tahlili ular markazidan joy olgan madaniy qadriyatlarni o‘rganish va qiyoslashga yordam beradi. Binobarin, *인간* – shaxs, 어머니 / ona, 아버지 / ota, 할머니 / buvi, 할아버지 / bobo, 남자 / o‘g‘il bola, 여자 / qiz bola konseptlari majmua ko‘rinishida *인간* – shaxs konseptosferasini hosil qiladi. *인간* – shaxs konseptosferasi bilish birligi sifatida barcha tillar va madaniyatlar sohiblari uchun universal hodisadir. Ayni paytda uning idrok etilishi, o‘ziga xos xususiyatlarining lisoniy voqelanishi va borliqni kategoriyalashdagi ahamiyati har bir milliy tilda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan koreys va o‘zbek xalqlariga xos olamni idrok qilishdagi g‘oyaviy-etnik xususiyatlar *인간* – shaxs konseptosferasi misolida aniqlanadi. Konsept markazi har doim muhim tushunchadan tashkil topadi, chunki konsept madaniyatni tadqiq qilishga xizmat qiladi. Madaniyat asosida esa aynan qadriyatlar tamoyili yotadi. Kognitiv konsept, o‘z o‘rnida, inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Konseptual

tahlilning zamonaviy usullari *인간-shaxs* konseptosferasiga kiruvchi tushunchalar verbalizatorlarini ajratishga imkon berdi. Bunda bir–biriga yaqin ma’noli mavzuviy guruhlarning lisoniy voqelantiruvchilari tanlandi va yaqin sarhaddagi semantik ko‘rsatkichlar aniqlandi, bu esa, o‘z navbatida, ularning strukturasi modellashirish imkoniyatini tug‘diradi. Universal atamalarning mavhumlashish darajasiga nisbatan *인간-shaxs* konseptosferasining sathlariga oid konseptlari emotsional, mavhumlashgan va hodisaviy qutblarga taqsimlandi. *인간-shaxs* konseptosferasi olamning lisoniy manzarasini tadqiq qilishga yo‘l ochib beradigan madaniy konseptlardan iborat makrotuzilma. Konseptni tahlil qilmasdan turib, etnomadaniylarni to‘liq talqin qilish mumkin emas. Chunki har qanday realiyaning madaniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni bu realiyaga inson qanday munosabatda ekanligiga qarab aniqlanadi. O‘zbek madaniyatiga xos olam lisoniy manzarasida *인간-shaxs* tushunchasi odam leksemasi orqali beriladi va har bir leksemada signifikativ ma’no va konnotativ semalar turlicha aks topadi. *인간-shaxs* konseptosferasining lisoniy yadrosi tahlili ko‘rsatishicha, o‘zbek va koreys tillarida *인간-shaxs* konseptining yaqin kishi sifatida idrok qilinishida umumiylik aniqlandi. O‘zbek va koreys lisoniy ongi yadrosida *인간-shaxs* konseptlari yaqin qarindosh sifatida; 어머니/ona, 아버지/ota, 친구/do‘st, 가족/oila so‘zlari hamda, insonning ijtimoiy mavqeyini bildiruvchi; 학생/talaba, 선생님/o‘qituvchi, 학자/olim, 의사/vrach so‘zlari orqali ifodalanadi.

Til inson ongida konseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so‘zning lug‘aviy ma’nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy – tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo‘ladi.

Tajriba qancha boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shu holatda konsept o'zini namoyon qila oladi. Yuqorida keltirilgan konseptlar insonni boshqa jonzotlar bilan qiyosiy jihatdan tavsiflaydigan xususiyati bilan farqlanadi. Ular yer sharida boshqa tirik jonzotlardan farqli tafakkur yuritish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni ongli mavjudot ekanligi, so'zlash, ongli ravishda mehnat qila olishi bilan inson nomiga ega bo'lgan (Lakoff, G. va Johnson, 1980, 33). Bunday yadroviy, ya'ni markaziy birliklar o'z atrofida bir qancha yadro oldi birliklarni hosil qiladi. Konseptosferaning yadro oldi birliklari bu uning markaz qurshovida bo'lgan birliklarga nisbatan qo'llanadi (Stepanov Yu. S., 2001, 67).

Tilning konseptual sohasi – bu juda murakkab tizim bo'lib, konseptlarni qatorida, zanjirda, markaz va periferiya singari daraxt kabi bog'laydigan ko'plab xilma-xil tuzilmalarning kesishishi va o'zaro tutashgan joylarini tashkil qiladi. Konseptosferani tushunish lingvistik tadqiqotlarning yangi integratsiyasiga chiqishga imkon beradi (Karasik V. I. 2004, 56). Lingvokognitiv yo'nalishda konseptni jamiyat tushunchalari birligi sifatida qarash hamda uni markaziy va periferik qismlarga bo'lib o'rganish mavjud. Bunday qarash Kubryakova, Z. Popov, I. Sternin va boshqalar ning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi (Kubryakova E. S.; Popova Z. D.; Sternin I. A., 1999, 3).

M. L. Rasulova, G. Sh. Otaxanovalar strukturasi ko'ra konseptning etimologik qatlamga shuningdek yadro va periferiyalarga ham egaligini va konseptni belgilashda yagona qarash hali ishlab chiqilmaganligini ta'kidlashadi (Rasulova M. I., 1996, 67); Otaxanova G. Sh. 2006, 77). Boshqa bir tilshunoslar esa konseptni maydonlarga bo'lib o'rganish metodlarini taklif etishadi. Ularning nazariyasi bo'yicha konsept yadroviy zona va periferik zonalarga bo'linadi. Yadroviy va periferik zonalarning mutanosibliigi konsept strukturasi belgilab beradi (Popova, Z. D.; Sternin, B. I. A. 1999, 88).

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda inson omiliga e'tibor ortishi natijasida lingvokognitiv yo'nalish (*인지/언어학*, *inji eoneohak*) shakllandi. Bu

yoʻnalish tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki inson tafakkuri (사고, *sago*), idroki (인식, *insik*) va dunyoni bilish jarayonining ifodasi sifatida oʻrganadi.

Tilshunoslikdagi bu burilish – kognitiv inqilob (cognitive revolution) – tilni inson ongining faol komponenti sifatida talqin etishga olib keldi.

Lingvokognitiv nazariyaning shakllanishi dastlab Gʻarbda, ayniqsa, AQSh va Yevropa tilshunoslik maktablarida kuzatildi. N. Chomskyning “til – tafakkur strukturasi” haqidagi qarashlari bu jarayonga asos boʻldi. (Chomsky, N. 1965, 102). Keyinchalik J. Lakoff, M. Johnson, R. Langacker kabi olimlar kognitiv semantika, kontseptual metafora, kognitiv grammatika nazariyalarini yaratdilar (Lakoff G. & Johnson M., 1980, 33).

Ularning fikriga koʻra, til birliklari insonning dunyoni qanday idrok etishini (*how people conceptualize reality*) aks ettiradi. Shu bois kognitiv yondashuv tilni faqat grammatik tizim emas, balki konseptual model (개념 모델, *gaenyeom model*) sifatida tushuntiradi.

Koreys tilshunosligida (한국어학, *hangug eohak*) lingvokognitiv tahlil XX asrning 80 – 90 – yillaridan boshlab rivojlandi. Bu davrda Lee Hyo–sang (이효상), Kim Jongrok (김종록), Choi Won–young (최원영) kabi olimlar tilni kognitiv–madaniy tizim sifatida oʻrgandilar. (Lee H., (이효상) 1990, 78). Masalan, Kim Jongrok taʼkidlaydi: “언어는 인간의 인식 구조를 반영하는 거울이다.” (“Til inson idrok tuzilmasining aksidir”). (Kim J., (김종록) 2012, 77). Koreys lingvokognitiv yondashuvining shakllanishiga uch omil sabab boʻldi:

1. Konfutsiycha madaniyat taʼsiri – tilda axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar mujassam;

2. Jamiyat markazli tafakkur (공동체 사고) – inson tildagi ma’noni ijtimoiy kontekst orqali anglaydi;
3. Madaniy semantika (문화 의미론) – har bir leksik birlik madaniyat kodlarini ifodalaydi.

Koreys kognitiv tilshunosligida shaxs konsepti (개인 개념) “효 (hyo)” – ota-onaga hurmat, “체면 (chaemyon)” – obro‘, va “정 (jeong)” – hissiy aloqadorlik tushunchalari orqali talqin etiladi. (Choi W.,(최원영) 2018, 101–120.)

O‘zbek tilshunosligida lingvokognitiv tahlil 1990–yillardan boshlab rivojlandi. Bu davrda A. G‘ulomov, N. Mahmudov, D. Jo‘raeva, Z. Qurbonova, G. Abdurahmonova kabi olimlar konsept, til va tafakkur muammolarini o‘rganishni boshladilar (Mahmudov N., 2008, 16).

A. G‘ulomov ta’kidlaydi: “Tilshunoslikda kognitiv yo‘nalishning paydo bo‘lishi tildagi inson omilini chuqurroq tahlil qilish zaruratidan kelib chiqqan” (G‘ulomov A., 2003, 77). O‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishning vujudga kelishiga quyidagi omillar sabab bo‘lgan:

1. Til va tafakkur birligi (til – tafakkurning ifodasi sifatida);
2. Milliy konseptosferani o‘rganishga ehtiyoj (xalq dunyoqarashini til orqali bilish);
3. Madaniy identifikatsiya jarayonida tilning o‘rni.

Bugungi kunda o‘zbek lingvokognitiv tadqiqotlarida “inson”, “vijdon”, “ona”, “yer”, “xalq” kabi konseptlar o‘zbek mentaliteti bilan bog‘liq holda tahlil qilinmoqda.

XULOSA

Kognitiv tilshunoslik inson tafakkurining tildagi in’ikosini o‘rganar ekan, shaxs konsepti milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlarning markazida turishini ko‘rsatadi. Koreys va o‘zbek tillaridagi “shaxs” konsepti semantik jihatdan yaqin

bo‘lsa–da, ularning madaniy asoslari farqlidir; O‘zbek modelida – vijdon, or, nomus qadriyatlari; Koreys modelida – chaemyon (obro‘), hyo (sadoqat), jeong (hissiy aloqa) qadriyatlari ustuvor.

Shunday qilib, muayyan bir til sohiblarining lisoniy ongi olamni o‘ziga xos, xususiyati tarzida aks ettiradi. Tabiiyki, bunday dunyoqarashda boshqa til vakillari tomonidan olamning idrok qilinishiga nisbatan umumiy o‘xshashliklar va farqlovchi belgilar ham ko‘zga tashlanadi. *인간-shaxs* konseptosferasining koreys va o‘zbek tillaridagi konseptual maydoni, ushbu birlikning leksik frazeologik sathlarda va paremiologiyada voqelanishining struktur–funktsional tavsiflari atroflicha tadqiq qilinadi. Koreys va o‘zbek tillaridagi *인간-shaxs* konseptosferasining strukturasi ifodalovchi lug‘aviy tavsiflarning komponent tahlili ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va semantik strukturalaridagi farqlarni aniqlash orqali o‘rganiladi.

Shaxs konseptining lingvokognitiv tahlili xalq tafakkuri, madaniyat va qadriyat tizimini anglashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari millatlararo madaniy tafovutlarni yoritish, tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Babushkin, A. P. *Tipy kontseptov v leksiko–frazеologicheskoy semantike yazyka.* – Voronezh, 1996. – p. 43.
2. Boldyrev, N. N. *Kognitivnaya semantika.* – Tambov, 2002. – 23, 44, 67–b.
3. Choi, W. (최원영). 문화 스키마를 통한 인식의 언어학적 구조 [The linguistic structure of cognition through cultural schema]. *Korean Cognitive Linguistics Journal*, 26(1), 2018. 101–120.b
4. Chomsky, N. *Aspects of the theory of syntax.* – MIT Press, 1965. – p.102.
5. Evans, V., Green, M. *Cognitive linguistics: An introduction.* – Edinburgh

- University Press, 2006. – 9.b
6. G‘ulomov, A. Til va kognitiv jarayonlar o‘zaro munosabati. *O‘zbek tili va adabiyoti jurnali*, (3), 2001. 15-21 b.
 7. G‘ulomov, A. *Til va tafakkur: konseptual yondashuv asoslari*. – O‘zMU nashriyoti, 2003. – 77.b
 8. Jo‘raeva, D. *O‘zbek tilida shaxs konseptining semantik maydoni*. – Fan, 2016. – 11.b
 9. Karasik, V. I. *Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs*. – Volgograd, 2004.
 10. Kim, J. (김종록). 한국어 인식 체계와 문화적 개념 연구 [A study of Korean cognitive systems and cultural concepts]. – Hankuk University Press, 2010. – 62.b
 11. Kim, J. (김종록). 사회 속 개인 개념의 구조적 분석 [Structural analysis of the concept of the individual in society]. *언어와 인문학 [Language and Humanities]*, 14(2), 2012. – 55-73 b.
 12. Kravchenko, A. V. Kognitivnaya lingvistika segodnya: integratsionnye protsessy i problema metoda. *Voprosy kognitivnoy lingvistiki*, – Tambov, 2004. – 37.b.
 13. Kubryakova, E. S., et al. *Kratkiy slovar kognitivnykh terminov*. – Moscow: MSU Press, 1996. – 3.b.
 14. Kubryakova, E. S. Yazyk prostranstva i prostranstvo yazyka (k postanovke problemy). *Izvestiya RAN – Seriya literatury i yazyka*, (3), 1997. 22-31 b.
 15. Popova, Z. D., Sternin, I. A. *Kognitivnaya lingvistika*. – Voronezh, 2010. – 61 b.
 16. Lakoff, G. Kognitivnaya semantika. In *Yazyk i intellekt* (33 b.). – Moscow: Progress, 1996.
 17. Langacker, R. W. *Foundations of cognitive grammar*. – Stanford University Press, 1987. – 78 b.
 18. Lee, H. (이현복). 한국인의 정체성과 효문화 연구 [A study on Korean identity and filial culture]. – Ewha Womans University Press, 2017. – 34 b.

19. Lee, H. (이효상). 언어와 인식의 관계 [The relationship between language and cognition]. – Hankuk Munhwasa, 1990.
20. Mahmudov, N. *Tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari*. – Fan, 2008. – 16 b.
21. Popova, Z. D., Sternin, I. A. *Kognitivnaya lingvistika*. – Voronezh, 2010. – 63 b.
22. Qurbonova, Z. *O‘zbek xalq axloqiy konseptlari va ularning lingvokognitiv talqini*. – SDCHTI nashriyoti, 2019.
23. Qurbonova, Z. *O‘zbek xalq konseptosferasi va milliy tafakkur*. – SDCHTI nashriyoti, 2019.
24. Rasulova, M. I., Otaxanova, G. Sh. *Til va tafakkur masalalari*. – Fan, 2006.
25. Stepanov, Yu. S. *Konstanty: Slovar russkoy kultury*. – Yazyki slavyanskoy kultury, 2001. – 335 b.
26. Xudoyberganova, D. *Kognitiv tilshunoslik va konsept nazariyasi asoslari*. – Fan, 2019. – 125 b.

REFERENCES

1. Babushkin, A. P. (1996). Types of concepts in the lexico–phraseological semantics of the language. Voronezh.
2. Boldyrev, N. N. (2000). Cognitive semantics: A course of lectures. Tambov.
3. Choi, W. (Choi Won–young). (2018). The linguistic structure of cognition through cultural schema. *Korean Cognitive Linguistics Journal*, 26(1), 101–120.
4. Chomsky, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. MIT Press.
5. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive linguistics: An introduction*. Edinburgh University Press.
6. G‘ulomov, A. (2001). The relationship between language and cognitive processes. *Uzbek Language and Literature Journal*, (3), 15–21.
7. G‘ulomov, A. (2003). *Language and thinking: The foundations of a conceptual approach*. Tashkent: National University of Uzbekistan Press.

8. Jo'raeva, D. (2016). The semantic field of the concept of 'person' in the Uzbek language. Tashkent: Fan Publishing.
9. Karasik, V. I. (2004). The linguistic circle: Personality, concepts, discourse. Volgograd.
10. Kim, J. (Kim Jong-rok). (2010). A study of Korean cognitive systems and cultural concepts. Seoul: Hankuk University Press.
11. Kim, J. (Kim Jong-rok). (2012). Structural analysis of the concept of the individual in society. *Language and Humanities*, 14(2), 55–73.
12. Kravchenko, A. V. (2004). Cognitive linguistics: Foundations of conceptual modeling. Irkutsk: Irkutsk University Press.
13. Kravchenko, A. V. (2010). Language and cognition: Cognitive grammar and epistemology. Peter Lang.
14. Kubryakova, E. S. (1996). A concise dictionary of cognitive terms. Moscow: Moscow State University Press.
15. Kubryakova, E. S. (2004). Language and knowledge: Toward gaining knowledge about language. Moscow: Languages of Slavic Culture.
16. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. Chicago: University of Chicago Press.
17. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of cognitive grammar*. Stanford University Press.
18. Lee, H. (Lee Hyun-bok). (2017). A study on Korean identity and filial culture. Seoul: Ewha Womans University Press.
19. Lee, H. (Lee Hyo-sang). (1990). The relationship between language and cognition. Seoul: Hankuk Munhwasa.
20. Mahmudov, N. (2008). *New directions in linguistics*. Tashkent: Fan Publishing.
21. Popova, Z. D., & Sternin, I. A. (1999). *Cognitive linguistics*. Voronezh.
22. Qurbonova, Z. (2019). Moral concepts of the Uzbek people and their cognitive interpretation. Samarkand: SDCHTI Press.
23. Qurbonova, Z. (2019). The conceptosphere of the Uzbek people and national thinking. Samarkand: SDCHTI Press.

24. Rasulova, M. I., & Otaxanova, G. Sh. (2006). Issues of language and thinking. Tashkent: Fan Publishing.
25. Stepanov, Yu. S. (2001). Constants: Dictionary of Russian culture. Moscow.
26. Xudoyberganova, D. (2019). Cognitive linguistics and the foundations of concept theory. Tashkent: Fan Publishing.